

LIRIK SHAKLNING RUHIYAT TALQINIDAGI O'RNI (SHODMONQUL SALOM IJODI NAMUUNASIDA)

Jo'ramurodova Sitora

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituta 2-kurs magistranti

joramurodovasitora11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378107>

Annotatsiya. Mazkur maqolada lirik shaklning inson ruhiyati talqinidagi o'rni Shodmonqul Salom ijodi misolida tahlil qilinadi. Lirik asarlarning asosiy mohiyati — inson qalbidagi kechinmalar, tuyg'ular va ichki iztiroblarni badiiy ifodalash ekani yoritilgan. Shoir she'riyatida shakl va mazmun uyg'unligi, ruhiy holatlarning timsollar, ohang va obrazlar orqali ifodalanishi tahlil etiladi. Shodmonqul Salom lirikasi inson ruhining murakkab kechinmalarini nozik badiiy vositalar yordamida ifodalashi bilan ajralib turishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada lirik shaklning ruhiyatga ta'sir etuvchi badiiy-estetik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Lirik shakl, ruhiyat, badiiy ifoda, Shodmonqul Salom, kechinma, timsol, ohang, poetik obraz, lirika, estetik ta'sir, inson qalbi.

Аннотация. В статье анализируется роль лирической формы в интерпретации психики человека на примере творчества Шодмонкул Салом. Подчеркивается, что основная суть лирических произведений — художественное выражение переживаний, чувств и внутренних страданий человеческой души. В поэзии поэта анализируется гармония формы и содержания, выражение душевных состояний через символы, мелодию и образы. Научно обосновано, что лирику Шодмонкул Салом отличает выражение сложных переживаний человеческой души тонкими художественными средствами. В статье раскрывается художественно-эстетическое значение лирической формы, воздействующей на психику.

Ключевые слова: Лирическая форма, психика, художественное выражение, Шодмонкул Салом, переживание, символ, мелодия, поэтический образ, текст, эстетическое воздействие, душа человека.

Abstract. This article analyzes the role of lyrical form in the interpretation of the human psyche using the example of Shodmonkul Salom's work. It is highlighted that the main essence of lyrical works is the artistic expression of experiences, feelings and inner suffering in the human soul. The poet's poetry analyzes the harmony of form and content, the expression of mental states through symbols, melody and images. The fact that Shodmonkul Salom's lyrics are distinguished by the expression of complex experiences of the human soul using subtle artistic means is scientifically substantiated. The article reveals the artistic and aesthetic significance of lyrical form affecting the psyche.

Keywords: Lyric form, psyche, artistic expression, Shodmonkul Salom, experience, symbol, melody, poetic image, lyrics, aesthetic impact, human soul.

Kirish. Adabiyot inson ruhining eng nozik torlarini chertuvchi, kechinmalarni so'z vositasida ifoda etuvchi san'at turidir. Badiiy so'zning eng ta'sirchan shakli bo'lgan lirika esa, inson qalbining ichki olamiga chuqur nazar tashlaydi, his va tuyg'ularni yuksak badiiylilikda ifodalaydi. Lirik asarlarda insonning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari, orzu-umidlari,

muhabbat va dardlari tasvirlanadi. Shu jihatdan lirika ruhiyatni badiiy talqin etishning eng nozik, eng samimiy shakli sanaladi.

Asosiy qism. Lirika — bu biror hayotiy voqea yoki holatdan ta'sirlanib tug'ilgan ichki kechinma, tuyg'u va fikrlar orqali hayotni badiiy ifodalovchi adabiy shakldir. Unda inson qalbining eng nozik hislari, ruhiy holatlari, ichki olamining tovlanishlari ifoda etiladi. Shu bois lirika nafaqat shaxsning ichki kechinmalarini, balki ularni yuzaga keltirgan hayotiy sharoitlarni ham tasavvur etish imkonini beradi. Lirik asarlar, odatda, kichik hajmda yoziladi. Ammo ularning mazmuniy quvvati nihoyatda keng bo'lib, ular turmushni obrazli va badiiy tarzda aks ettirishning barcha xususiyatlariga ega. Lirikada shoirning individual hissiyotlari orqali umumiy, tipik kechinmalar ifodalanadi. Ya'ni, muayyan bir shaxsning yurak holati, aslida, butun insoniyatga xos tuyg'ularni ifodalaydi. Shu tarzda lirika asarda badiiy umumlashtirish yuzaga keladi. Shoir lirik asarda faqat o'zining shaxsiy holatini emas, balki hayotdagi umumiy insoniy kechinmalarni ifodalashga intiladi. Bu esa, tabiiy ravishda, badiiy fantaziyani talab etadi. Chunki fantaziyasiz yozilgan she'r shaxsiy hislar kundaligiga o'xshab qoladi, ammo haqiqiy san'at darajasiga ko'tarila olmaydi. Demak, lirika uchun ham badiiy tasavvur va orzuga boylik muhim xususiyatdir. Shoir o'z asarida voqelikni ijobiy g'oyalar, ilg'or ijtimoiy ideallar nuri bilan yoritadi. Shu bois lirik asarlar insonni ruhlantiradi, ezgulikka chorlaydi va katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Lirik shakl bu shoirning ruhiyatga ta'sir qiluvchi alohidalik bilan insonlarga o'z ichki dunyosiga qayta g'arq qilguvchi vositadir. Shoirning o'ziga xos "men"i orqali dunyoni qayta idrok etishingiz mumkin. Odatda shoir shu "men"i orqali faqatgina voqeani emas, balki insonning ichki kechinmalarini, uning his-tuyg'ularini, umuman olganda uning ichki dunyosini ifodalab beradi. Shodmonqul Salom ijodiga nazar tashlayigan bo'lsak, shoir o'z she'rlarida lirik shaklning asosiy qudrati ruhiy holatni tiniq va tabiiy tarzda ifodalashidadir. Shoirning "Nurjona", "Ota", "Bir karvon kelyapti Dashti Qipchoqdan..." kabi she'rlarida inson ruhining turfa holatlari – sog'inch, iztirob, umid, qo'rquv va mehr samimiy ohangda aks etadi.

"Ota, ko'zlaringdan kirib kelyapman,
Kaftingda go'dakday yurib kelyapman."¹

Bu misralarda tasavvuriy kechinma bilan ruhiy yaqinlik uyg'unlashadi. Farzand o'zini otaning nigohi, qo'li, mehrida his etadi. Xuddi shu hissiyot – ruhiyatning eng samimiy nuqtasidir. Shoirning "men"i orqali barcha farzandlarning yurakdagi ehtiyojini ya'ni otaning mehriga qaytish, bolalik sokinligiga qaytish istagini ifoda etib beradi. "Chinakam lirika, - deb yozadi Gegel, - boshqa har qanday haqiqiy poeziya kabi inson yuragining chinakam mazmunini ifoda qilib berish kerak."² Shodmonqul Salom "Ota" she'rida ham inson yuragining ichki kechinmalarini juda aniq holatda ifoda etib bergan. She'rda shoir o'z shaxsiy kechinmalarini ifodalagan bo'lsa-da, har bir o'quvchi bu she'rni o'qir ekan, o'z otasini eslaydi, o'z dardini topadi.

"Ota, baland ekan dunyoning tomi,
Balandligi xuddi sening armoning.
Men esa seningmas, so'zning g'ulomi,

¹ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot matbaa birlashmasi, 2022.B-121

² Гегель. Эстетика. Т.3. — М., 1971. — 504 с.

Hamda sargardon bo'lib kelyapman,
Kaftimda shamchiroq olib kelyapman.”³

Yuqoridagi misralarga e'tibor beradigan bo'lsak shoiring ichki iztiroblari, armonlari mavj ura boshlaganini ko'rishimiz mumkin. Ota – farzand hayotidagi qulamas tog', sabr, matonat timsoli. Ammo uning ham o'z orzulari va armonlari bor. Yuqoridagi misralarda farzandlarning sabr, matonat timsoli bo'lgan otalarning bir vaqtini o'zida armon va og'riq manbai ekanligini ham tasvirlab ketadi. Lirikaning falsafiy yo'nalishi ruhiy talqinni chuqurlashtiradi.

V.Xalizev obrazning ikki xilini ajratadi: anglash fenomeni sifatidagi obraz va tasavvurning hissiy (ko'rish va eshitish vositasida) gavdalanish orqali hosil bo'luvchi obraz. Shoir esa o'z she'rida bir o'rinda ikki tipdagi obrazni umumlashtirgan holda aks ettiradi.

“Tosh ostida qolgan maysa
Ne deb bo'zlar bilmadim...”⁴

Yuqoridagi misralarga qaraydigan bo'lsak, shoir shunchaki tabiatni tasvirlamayapti, balki shu tasvir orqali bir qizning ichki kechinmalarini – ruhiy ezilish, bosilib, siqilib yashashi berilgan. Lirik shakl bu holatni to'g'ridan to'g'ri aytmay, obrazlar orqali his ettiradi. A.Potebnya “Fikr va til” nomli tadqiqotida obrazni “tasavvurning qayta ishlanishi” deb atagani ham bejiz emas. Shuningdek, shoiring ruhiyatni ifodalash uchun yana bir qancha poetik obrazlardan ham foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. “Nurjona” she'rida shoir oy, bulut, tong, shamol kabi bir qancha obrazlar orqali qizning ruhiy kechinmalarini ochadi:

“Bulut to'sib tursa hamki,
Oy suzib o'tar ekan...”⁵

Bu satrlarda hayotdan umid ilinji borligi aks etgan. Garchi hayot (bulut) uni to'sayotgan bo'lsa-da, uning orzulari hali so'nmagan.

Xulosa

Shodmonqul Salom she'riyati o'zining nozik ruhiy talqini, inson qalbining ichki kechinmalarini teran ochib berishdagi mahorati bilan ajralib turadi. Uning “Ota” va “Nurjon” kabi lirik asarlari orqali shoir lirik shaklning ruhiyatni ifodalashdagi beqiyos imkoniyatlarini namoyon etadi. Lirik shakl shoir uchun faqatgina she'riy tuzilma emas, balki inson ruhining eng nozik qatlamlariga kirish vositasidir.

“Ota” she'rida farzand qalbining sog'inch, mehr va minnatdorlik tuyg'ulari samimiy lirizmida ifodalangan bo'lsa, “Nurjon” she'rida ayol qalbining dardlari, orzulari, iztirobi va pokligi lirik shakl vositasida go'zal badiiy talqin topgan. Shoir insonning ichki olamini tashqi voqelikdan ustun qo'yadi, shuning uchun uning she'rlari ruhiyatning ichki harorati bilan yashaydi. Demak, lirik shakl Shodmonqul Salom ijodida ruhiyatni tahlil etish, tuyg'ularni tasvirlash va insoniylik mohiyatini anglashning eng muhim badiiy vositasiga aylanadi. Uning

³ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot matbaa birlashmasi, 2022.B-121

⁴ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot matbaa birlashmasi, 2022.B-112

⁵ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot matbaa birlashmasi, 2022.B-112



she'rlari orqali lirik shakl — inson qalbining eng chuqur sirlarini ochuvchi, ruhiy holatlarni his etuvchi va o'quvchi qalbiga yetkazuvchi san'at vositasi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гегель. Эстетика. Т.3. — М., 1971. — 504 с.
2. Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot matbaa birlashmasi, - 2022. B-121
3. M.G'anieva. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi. – 2004
4. B.Qosimov. O'zbek adabiyoti nazariyasi. Toshkent: Fan. – 2007
5. S.Karimov. Zamonaviy lirikaning badiiy xususiyatlari. – "Filologiya masalalari" jurnali, №1. – 2020